




ACTA EDUCATION

ISSN: 3030-3141



**2025
N 1**

Acta Education

2025 2-Jild 1-son

Jurnal 2023 yilda tashkil etilgan.

Davriyligi: har chorakda.

Davriy nashrning rasmiy nomi: "Acta Education" (Ta'lim xabarleri). Jurnal Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 30.08.2023 yilda ro'yxatdan o'tkazilgan, litsenziya raqami №122187. ISSN: 3030-3141

Jurnal: ilmiy-tadqiqot, ta'lim, pedagogika, ta'lim boshqaruvi, ta'lim uslubiylati va boshqa sohalar bo'yicha ilmiy maqolalar chop qiladi.

Jurnal ta'sischisi: "TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION" mas'uliyati cheklangan jamiyati.

Nashr etuvchi: Tashkent International University of Education

Xalqaro indeksi: ISSN 3030-3141 (Online).

Tahririyat telefoni: +998 (55) 512 2020(118), +998 (93) 375 5337

Pochta manzili: Tashkent International University of Education, 100207, Toshkent sh., Yashnobod tumani, Tuzel-2, Imom Buxoriy ko'chasi, 31.

Web-sayt: www.actaeducation.uz

E-mail: actaeducation@tiue.uz

© Tashkent International University of Education LLC, 2023

Acta Education

2025 - Volume 2 Issue 1

The journal was founded in 2023

Frequency: quarterly

Official name of the journal: «Acta Education». The journal was registered with the Agency for Information and Mass Communications. Licence №122187. 30.08.2023 y. ISSN: 3030-3141

Journal: publishes scientific papers in the field of research, education, pedagogy, education and training management, teaching methodology and others.

The founder of the journal: "TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION" LLC (Limited Liability Company).

Publisher: Tashkent International University of Education

International indices: ISSN 3030-3141 (Online).

Editorial phone: +998 (55) 512 2020(118), +998 (93) 375 5337

Postal address for correspondence: Tashkent International University of Education, Imam Bukhariy street 31, Tuzel-2, Yashnabad district, Tashkent 100207.

Web-site: www.actaeducation.uz

E-mail: actaeducation@tiue.uz

© Tashkent International University of Education LLC, 2023

Acta Education

2025 - Том 2 Выпуск 1

Журнал основан в 2023г.

Периодичность: ежеквартально

Официальное название журнала: «Acta Education» (Вестник образования). Журнал зарегистрирован в Агентстве информации и массовых коммуникаций. Лицензия №122187. 30.08.2023 г. ISSN: 3030-3141

Журнал: публикует научные статьи в области науки, образования, педагогики, управления образованием и обучением, методики преподавания и др.

Учредитель журнала: "TASHKENT INTERNATIONAL UNIVERSITY OF EDUCATION" LLC (Limited Liability Company).

Издатель: Tashkent International University of Education

Международный идентификатор: ISSN 3030-3141 (Online).

Телефон редакции: +998 (55) 512 2020(118), +998 (93) 375 5337

Почтовый адрес для корреспонденции: 100207 Республика Узбекистан, г. Ташкент, Яшнабадский район, Тузель-2, ул. Имама Бухари 31, Tashkent International University of Education.

Веб-сайт: www.actaeducation.uz

E-mail: actaeducation@tiue.uz

© Tashkent International University of Education LLC, 2023

ACTA EDUCATION

(2025)
Volume 2
Issue 1

TA'LIM XABARLARI

(2025)
Jild №2
1-Son

ВЕСТНИК ОБРАЗОВАНИЯ

(2025)
Том №2
Выпуск №1



ACTA EDUCATION EDITORIAL BOARD

Chairman (Chief editor): Baydjanov Maksudbek Islamdjanovich – PhD in Physics and Mathematics Sciences, Associate Professor.

David Thompson – DSc in Physical and Mathematical Sciences, Professor.

Aajaz Ahmad Hajam - PhD in Commerce / Management

Sheraliev Oybek Rikhsillayevich – DSc in Economical Sciences, Professor.

Abdurakhmanov Umarbek – DSc in Physical and Mathematical Sciences, Professor.

Yusupov Maksudbek Sultanmuratovich – DSc in Physical and Mathematical Sciences, Professor.

Khalilov Umedjon Boymamatovich – DSc in Physical and Mathematical Sciences, Professor.

Razzokov Jamoliddin Inatullaevich – DSc in Chemical Sciences, Professor.

Rakhimov Rakhimbergan Yuldoshevich – DSc in Technical Sciences, Senior Researcher.

Khodjaev Nodir – PhD in Technical Sciences, Associate Professor

Yusupov Jaloliddin Rasuljonovich – PhD in Technical sciences.

Karimov Rakhmat Rakhmanovich – PhD in Philosophical Sciences, Professor.

Saidova Kamola Uskanbaevna – DSc in Philosophical Sciences. Professor.

Chay Zoya Sergeevna – PhD in Physical and Mathematical Sciences, Associate Professor.

Rakhimova Yayra Makhmudovna – PhD in Physical and Mathematical Sciences.

Rajabova Zuhra Sadullaevna – PhD in Historical Sciences, Associate Professor.

Abdullaev Nuraddin Kuranbaevich - PhD in Pedagogical Sciences

ACTA EDUCATION TAHRIRIYAT KENGASHI

Rais (Bosh muharrir): Baydjanov Maqsudbek Islamdjanovich – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

David Thompson – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Aajaz Ahmad Hajam - Tijorat / Menejment fanlari bo'yicha Falsafa doktori (PhD).

Sheraliev Oybek Rixsillayevich – Iqtisod fanlari doktori, Professor.

Abdurakhmanov Umarbek – Fizika-matematika fanlari doktori, Professor.

Yusupov Maqsudbek Sultanmuratovich – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Halilov Umedjon Boymamatovich – Fizika-matematika fanlari doktori, professor.

Razzoqov Jamoliddin Inatullayevich – Kimyo fanlari doktori, professor.

Raximov Raximbergan Yuldoshevich – Texnika fanlari doktori, Katta ilmiy xodim.

Xodjaev Nodir – Texnika fanlari nomzodi, dotsent.

Yusupov Jaloliddin Rasuljonovich – Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Karimov Rahmat Rahmanovich – Falsafa fanlari nomzodi, Professor.

Saidova Kamola Uskanbayevna – Falsafa fanlari doktori, professor.

Chay Zoya Sergeevna – Fizika-matematika fanlari nomzodi, dotsent.

Rahimova Yayra Mahmudovna – Fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

Rajabova Zuhra Sadullayevna – Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

Abdullaev Nuraddin Kuranbaevich – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori PhD

«ActaEducation» elektron jurnali
Guvohnoma raqami №122187

ISSN 3030-3141

Founder: **Tashkent International University of Education**

Editorial board address: Imam Bukhari str. 31, Tuzel-2, Yashnabad district, Tashkent 100207, Uzbekistan

www.actaeducation.uz

actaeducation@tiue.uz

The electronic journal «ActaEducation» has a certificate No. 122187

ISSN 3030-3141

Ta'sischi: **Tashkent International University of Education**

Tahririyat manzili: 100207 O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Yashnabad tumani, Tuzel-2, Imom Buxoriy ko'chasi 31.

www.actaeducation.uz

actaeducation@tiue.uz

Электронный журнал «ActaEducation» имеет сертификат №122187

ISSN 3030-3141

Учредитель: **Tashkent International University of Education**

Адрес Редакции: 100207 Республика Узбекистан, г.Ташкент, Яшнабадский район, Тузель-2, ул. Имама Бухари 31.

www.actaeducation.uz

actaeducation@tiue.uz

MUNDARIJA / CONTENTS

Диэлектрическая проницаемость композиционных полимерных материалов на основе полиэтилена содержащих наночастицы меди	4
Dielectric permittivity of composite polymer materials based on polyethylene containing copper nanoparticles	4
Integrating corpus and discourse approaches to analyze terminological collocations in english and uzbek: a comparative study	9
Особенности управления образовательными учреждениями в Великобритании: теоретические и практические аспекты	13
Features of the management of educational institutions in the UK: theoretical and practical aspects	13
Turkiston jadidlari ta'lim islohotining ba'zi masalalari	19
The role of educational technologies in improving management effectiveness	19
Основные принципы системного подхода к организации образовательно-воспитательной деятельности госпитальной школы	23
The basic principles of a systematic approach to the organization of educational activities of a hospital school	23
Boshqaruv samaradiligini oshirishda ta'lim texnologiyalarining roli	27
The role of educational technologies in improving management effectiveness	27
Innovative strategies for enhancing the pedagogical competence of Russian language teachers	31
Psixodiagnostika metodikalari ilmiyligining psixometrika mezonlarini ta'minlash jarayonini optimallashtirishning ahamiyati	33
The importance of optimizing the process of ensuring the psychometric criteria of the scientificity of psychodiagnostic methodologies	33
Специфика управления персоналом в современных образовательных учреждениях	37
The specifics of personnel management in modern educational institutions	37

Turkiston jadidlari ta'lim islohotining ba'zi masalalari

Rajabova Zuhra Sa'dullayevna

Urganch Ranch texnologiya universiteti, Urganch, O'zbekiston

E-mail: zuhra81448@gmail.com

Citation: Z.Rajabova. The role of educational technologies in improving management effectiveness. Acta Education (2025) 2(1) 19–22. DOI: <https://doi.org/10.61587/3030-3141-2025-2-1-20-25>

Corresponding authors:

Z.Rajabova

zuhra81448@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston hududida shakllangan jadidchilik harakatining ta'lim sohasidagi islohotlari tahlil qilingan. Unda jadidlarning “yangi usul” maktablarini tashkil etishdagi tashabbuslari, ta'lim dasturlarini zamonaviy fanlar asosida boyitish borasidagi ishlari va yosh avlodni ma'rifatga chorlovchi g'oyalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: *jadidchilik, ta'lim islohoti, yangi usul maktablari, Turkiston jadidlari, ma'rifatparvarlik, Uchinchi Renessans.*

The role of educational technologies in improving management effectiveness

Rajabova Zuhra Sadullaevna

Urgench Ranch University of Technology, Urgench, Uzbekistan

E-mail: zuhra81448@gmail.com

Abstract. This article analyzes the reforms in the field of education of the Jadid movement, which took shape in the territory of Turkestan in the late 19th - early 20th centuries. It highlights the Jadids' initiatives in establishing “new method” schools, their work on enriching educational programs based on modern sciences, and their ideas calling the younger generation to enlightenment.

Keywords: *Jadidism, education reform, new method schools, Turkestan Jadids, enlightenment, Third Renaissance.*

Kirish

Jadidchilik - XIX asr oxiri – XX asr boshida jahon sivilizatsiyasida nihoyatda katta rol o'ynagan Turkistonda jamiyatni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqishni maqsad qilgan hamda millatni rivojlantirish orqali, ta'lim tizimini isloh etishni ko'zlagan marifatparvarlar harakati. Jadidlar sharqona hayot tarzini saqlagan holda G'arb va Yevropa taraqqiyoti natijalarini uyg'unlashtirib, “yangi usul” ya'ni “usul ul-jadid” maktablarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratishgan. Taraqqiyparvarlar o'zlaridan keyingi avlod taqdiri uchun jon jahdlari bilan kurashdilar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Murojaatnomasida ta'kidlaganidek: “Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi,

Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur”[1].

Adabiyotlar sharhi va metodologiya

Tahlil qilinayotgan davrga oid tarixiy jarayonlar yuzasidan mustaqillik yillarida tarixchilar tomonidan yangicha metodologik uslubda yozilgan tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega. Xususan, bu boradagi tadqiqot ishlariga Z.Abdirashidov, R.Sharipov, D.Alimova, S.S.A'zamkhojaev, O.Sharafiddinov, N.S.Xamitboeva,

Funding source for publication: Tashkent International University of Education.

Publisher's Note: ActaEducation stays neutral with regard to jurisdictional claims in published maps and institutional affiliations.



Copyright: © 2023 by the authors. Licensee ActaEducation, Tashkent, Uzbekistan. This article is an open access article distributed under the terms and conditions of the Creative Commons Attribution (CC BY-NC-ND) license (<https://creativecommons.org/licenses/by-nc-nd/4.0/>).

N.S.Mirsaidova tomonidan chop qilingan monografiya, risola va ilmiy maqolalarni keltirish mumkin. Ularda XIX asr oxiri – XX asr boshlari Xiva xonligida ta'lim tizimi, Xorazm va Buxoro xalq respublikalaridagi tarixiy-madaniy jarayonlar, Sovet hokimiyati davrida hududlarda ta'lim tizimining ahvoli masalalari tahlil etilgan.

Mazkur maqolani tayyorlashda tarixiy-qiyosiy tahlil usuliga asoslanib, arxiv manbalari, xususan hujjatli materiallar, tegishli organlarining rasmiy hisobotlari, shuningdek, ilmiy adabiyotlardan foydalangan holda tadqiqot amalga oshirildi.

Natijalar va muhokama

Dastlab Jadidchilik XX asrning 80-yillarida Qrimda Ismoilbek Gasprinskiy rahbarligida qrimtatarlar o'rtasida vujudga kelgan. Jadidchilik mohiyat e'tibori bilan siyosiy harakat edi. Jadidchilik namoyandalari o'zlarini dastlab taraqqiyparvarlar, keyinchalik jadidlar deb atashgan. Taraqqiyparvarlar o'sha davrda birinchi navbatda, ziyolilar mahalliy aholining umumjahon taraqqiyotidan orqada qolayotganligini anglab, jamiyatni isloh qilish hamda chorizmga qarshi kurashdi xalqni asriy qoloqlikdan uyg'otishga qaror qildilar.

Jadidlar asosan: yangi usul maktablari tarmog'ini kengaytirish bilan birga yoshlarni chet elga o'qitishga yuborish, gazeta va jurnallar chop qilish, teatr truppalari tuzish orqali xalqning ijtimoiy-siyosiy ongini yuksaltirishga e'tibor qaratishgan. Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand va Xivada shakllangan jadidchilik harakati namoyondalaridan: Munavvarqori Abdurashidxonov, Abdulla Avloniy, Ubaydullaxo'ja Asadullaxo'jayev (Ubaydulla Xo'jayev), Majid Qori Qodiriy, Toshpo'latbek Norbo'tabekov (Toshkent), Mahmudxo'ja Behbudiy, Abduqodir Shukuriy (Shakuriy), Ajziy (Samarqand), Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Usmonxo'ja Po'latxo'jayev, Abdulvohid Burhonov, Sadridin Ayniy, Abdulqodir Muhiddinov (Buxoro), Obidjon Mahmudov, Hamza, Cho'lpon, Is'hoqxon Ibrat, Muhammadsharif So'fizoda (Farg'ona vodiysi), Boltihoji Sultonov, Rahmonberdi Madazimov, Fozilbek Qosimbekov (O'sh uyezdi), Polvonniyoz hoji Yusupov, Boboovun Salimov (Xorazm) kabi ziyolilar Turkistonda jadidchilik harakatini keng yoyilishida yetakchilik qilishdi.

Jadidlarning asosiy maqsadlaridan biri ta'lim tizimini isloh qilish, "yangi usul" maktablarini tashkil qilishga harakat qilishgan. Mahmudxo'ja Behbudiyning "Zamona ilmu fanidan bebahra milat o'zgalarga poymol bo'lur", Abdulla Avloniyning "Tarbiya biz uchun yo hayot yo mamot, yo najot yo halokat, yo saodat yo falokat masalasidir", degan so'zlari bugun ham millatni uyg'otuvchi kuch sifatida

jarang sochmoqda.

Dastlabki, "Yangi usul" maktabi 1884-yilda Ismoil Gaspirali tomonidan Qrimda tashkil qilingan. O'rta Osiyoga yangi usul maktablarining tarqalishi sekinlik bilan amalga oshgan. Jadidlar tashkil qilingan "Yangi usul" maktablarida an'anaviy maktab fanlarini o'qitishdan tashqari geografiya, tarix, matematika va tabiatshunoslik kabi fanlarga ham alohida e'tibor qaratilgan. An'anaviy o'quv dasturiga kiritilgan eng muhim va keng tarqalgan o'zgartirish jadidlarning bolalar o'qishni fonetik usullar orqali o'rganishini talab qilishlari funksional savodxonlikni rag'batlantirishda ko'proq muvaffaqiyat qozongan. Jadidlar Rossiya Turkistonidan tashqarida Qohira, Tehron, Bombay, Istanbulda chop etilgan darsliklarni olib kelishdan tashqari, o'z darsliklari ham yaratdilar. Jadid maktablarida ona (ko'pincha turkiy) tillarda savod o'rganishga e'tibor qaratilgan.

Turkistonlik jadidlarning bosma nashrlar yordamida yangi uslubdagi darsliklar, gazeta va jurnallar bilan bir qatorda yangi spektakl va adabiyotlar, o'ziga xos innovatsion iboralar ham yaratdilar. Turkistonda nashr etilgan turkiy tildagi gazetaning birinchi chiqishi 1905-yilgi inqilobdan keyin boshlangan. Markaziy Osiyo jadidlari bunday ommaviy axborot vositalaridan o'z loyihalarini qo'llab-quvvatlash, mahalliy madaniy amaliyotlarni tanqid qilish va umuman Turkistonni qiynayotgan ijtimoiy muammolarga davo sifatida targ'ib qilish va ilgari surish imkoniyati sifatida foydalanganlar.

Jadidlar faoliyatida yoshlarni, butun xalq ommasini madaniyatga, ma'rifatparvarlikka, yangilikka, taraqqiyotga intilishga da'vat etish g'oyalari ularning umrlari oxirigacha yetakchi fikr bo'lib qolgan. Jadidlar jamiyat muammolarini hal etishning eng samarali vositasi sifatida ilmga to'la ishonganlar va ilm tarqatuvchilar bo'lganlar.

Jadidlar yangi usuldagi maktablarda eslab o'rganishni, shuningdek, ular o'quvchilarga zamonaviy dunyoda o'z o'rini egallashlari hamda tashqaridagi raqobatga chidamli bo'lishlari uchun o'quv dasturlarini kengaytirishda e'tibor qaratishgan. Asosan arifmetika, tabiiy fanlar, tarix va geografiya muntazam o'quv faniga aylangan. Jadid maktablarida diniy bilimlar ham o'qitilgan. Darhaqiqat, ular Islom aqidalarini o'rgatish va Qur'on tilovatiga ko'p e'tibor berishgan. Yangi usuldagi maktablarda tarix, geografiya va boshqa fanlar bilan bir qatorda din alohida fanga aylangan.

1901-yilda Munavvar Qori tomonidan Toshkentda tashkil etilgan birinchi maktabdan Buxoro, Samarqand, Toshkent, Qo'qon va boshqa joylarda, bir necha yangi uslubdagi maktablar soni ortib borgan.

Jadid gazetalari va davriy nashrlari 1905-yilgi rus inqilobidan keyin paydo bo'la boshlagan. Toshkentda turkiy tilda nashr etilgan ilk jadid nashrlari qisqa umr ko'rgan. "Hurshid", "Shuhrat" va boshqa gazetalari ochiq-oydin masalalar bayon etilgani uchun atigi o'ntadan keyin hukumat buyrug'i bilan yopilgan.

Jadid davrining boshqa muhim nashrlari qatorida o'zbek va tojik tillarida nashr etilgan Behbudiyning "Oyina" asari ham bor. Behbudiyning diqqatga sazovor jihati har qanday shaklda ma'rifatli g'oyalarni ekishga intilishi edi. Ziyolilar orasida katta nufuzga ega bo'lgan "Sadoi Turkiston" (1914-1917 yy) nashrlarida Qoriy, Avloniy, Niyoziy va Cho'lpan kabi muharrirlar, musulmon mamlakatlaridagi voqealarda nashr etish bilan birga, diniy masalalardagi mavzularni ham yoritishgan. Qo'qon va Farg'ona vodiysida siyosiy, tijorat va adabiy masalalar bo'yicha mo'tadil jadidcha qarashlar ko'pincha Sadoi Farg'ona (1914-1915 yy) nashrlarida tarqalgan. O'sha paytlarda obunachilar sonining kamligi va hokimiyatning dushmanligi tufayli, jadid gazetalarning ta'siri cheklangan edi. Lekin ular jadidlarning 1917-yilgacha bo'lgan siyosat, jamiyat va madaniyatga oid g'oyalari evolyutsiyasini kuzatish, 1920-30-yillarda ularning ijodi va muhim ijtimoiy masalalardagi pozitsiyalarini tushuntirish uchun zarurdir. Jadidchilikning eng chuqur adabiy ta'sirlari badiiy adabiyotda sezildi. Ayniqsa, Qodiriy va Cho'lpan adiblari 1917-yilgacha adabiyotga jadidchilik yo'nalishini namuna ko'rsatganlar, lekin ular o'z iste'dodlarini ijtimoiy faollik xizmatiga qaratish bilan birga, adabiyot ijodkori sifatida ham o'zlarini anglagan.

Jadidlar o'z g'oyalarini keng jamoatchilikka yetkazishda teatr noyob imkoniyat yaratdi. Teatr an'analariga asoslanib, ular 1911-yildan 1916-yilgacha zamonaviy, "yevropa" uslubida jaholat, diniy aqidaparastlik va hukumat zulmi va korrupsiya mavzilarida o'ttizga yaqin pyesa yaratdilar. Behbudi 1911-yilda yozilgan va 1914-yilda Samarqandda namoyish etilgan jadidlarning "Padarkush" pyesasi bilan jadid va hozirgi Turkiston teatriga asos solgan. Spektakl tomoshalari 1914-yildan boshlab Samarqand, Toshkent, Qo'qon va boshqa shaharlarda namoyish etish uchun madrasa talabalaridan iborat ko'plab havaskor aktyorlar jamoalari tashkil etildi. Jadidlar spektakllardan tushgan mablag'larni yangi usul maktablarini qo'llab-quvvatlash uchun sarflashgan.

Jadidlarning ijtimoiy hamjamiyat tuyg'usi hamma narsani qamrab olgan holda kambag'allarning ahvolini yaxshilash mas'uliyatini o'z zimmalariga oldilar. Shuningdek, jadidlar xotin-qizlarga ham jamiyat a'zosi sifatida qaraganlar va ularni ta'lim va turmush qurishda yuksaltirishga, o'qishda teng

imkoniyatlarga chaqirishda hamjihat bo'lishgan. Hamza Hakimzoda Niyoziy o'zining "Yangi saodat" (1915) romanida kelinning yaxshi ta'lim olishi muhimligini ta'kidlagan [3]. Ayollar huquqlarining eng izchil targ'ibotchilaridan yana biri o'zbek shoiri Anbar Otin (1870-1916 yy) yosh qizlar va keksa erkaklar o'rtasida uyushtirish amaliyotiga chek qo'yishni istar, maktab va madrasalarga ko'proq qizlarni yuborishni talab qilgan.

Jadidlar 1910-yilda Buxoroda o'zlarining ta'lim sohasidagi islohotlarini ilgari suruvchi "Tarbiyai atfol" - "Bolalar tarbiyasi" uyushmasini tuzishgan. Uning yigirma sakkiz a'zosi bo'lib, ularning o'n to'rt nafarini mullalar tashkil etgan. Bu uyushma 1917-yil aprelda tarqatib yuborilgunga qadar, talabalarga turli yo'llar bilan Buxoroda yangi usuldagi madrasa bo'lmaganligi sababli Orenburg, Qozon, Urfa, Istanbul, Qohiraga talabalarni yuborib o'qitishgan.

Xulosa

Prezident Shavkat Mirziyoyev O'zbekiston Mustaqilligining yigirma to'qqiz yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilayotgani haqida gapirdi [2]. Darhaqiqat, mamlakatimizda XX asrda Uchinchi Renessansni ma'rifatparvar jadidlar amalga oshirishlari mumkin edi. Millatimizni g'aflat botqog'idan qutqarish, o'lkani jaholat va qoloqlikdan olib chiqish, shu yo'lda ular o'zlarining kuch va imkoniyatlarini safarbar etish bilan birga, jonlarini ham qurbon qilganlar. "Ilmdan boshqa najot yo'q va bo'lishi ham mumkin emas" degan hadisda hayotiy e'tiqod bilan oldinga harakat qilishgan. Zamonaviy dunyoviy va diniy bilimlarni chuqur egallash orqali milliy istiqlol, taraqqiyot va farovonlikka, erishish mumkin, deb hisoblashgan.

Ular o'sha davrning turli kimsalarining tuhmatalomatlari uchun duchor bo'lish bilan cheklanmasdan, rus podshohligi va sho'rolar hukumati tomonidan ayovsiz quvg'in va qatag'on qilindi. Shu asnoda, Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmasdan, milliy uyg'onish va taraqqiyot harakati xotira sifatida qoldi. Jadidlarning ilmiy-ma'rifiy, adabiy-badiiy merosi hozirgi davrda ham katta ahamiyatga ega.

Bugungi kunda biz uchinchi Uyg'onish davriga qadam qo'ydik. Davlatimiz rahbari Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas" – degan fikrlari hamda keyingi besh yilda imzolagan qonun,

farmon va qarorlari shuningdek, davlat dasturlari, ilgari surgan yangidan-yangi tashabbuslari navbatdagi ma'rifat Renessansi Yangi O'zbekiston ekanligini yaqqol ko'rsatmoqda.

Uchinchi Renessans ostonasida ma'naviy taraqqiyotni yuksaltirishda yosh avlodni milliy va umuminsoniy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash bugungi kunning muhim zaruratiga aylanib bormoqda.

Adabiyotlar / References

1. Mirziyoyev Sh. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga murojaatnomasi. – Toshkent. 2020-yil 29-dekabr.
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2022.

3. Hamza Hakimzoda Niyoziy. Yangi saodat / roman. <https://uzsmart.uz>

4. Mahmudxo'ja Behbudiy: turkiston jadidchilik harakatining yo'l boshchisi, milliy ma'rifat rahnamosi. <https://yuz.uz/uz/news/mahmudxoja-behbudiy-turkiston-jadidchilik-harakatining-yolboshchisi-milliy-marifat-rahnamosi>

5. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2016.